

PSYCHOLOGICAL METHOD OF DEVELOPING CHILDREN'S BEHAVIOR AND EMOTION

Khudoykulova Sh.

Teacher of the Psychology Department of Termiz State University


Annotation

This article examines the development of children's behavior and emotions as a psychological problem. Also, the place and role of fairy tales in the development of children's behavior and emotions is highlighted.

Keywords: behavior, emotion, education, method, children's emotion, fairy tale
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim", degan ta'kidi, yurtimizda yoshlar tarbiyasiga, ayniqsa, oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza qilishga alohida e'tibor berilayotganining dalolatidir[3].

Buyuk kelajak bugundan, avlodlar esa hozirgi yosh bolalardan boshlanadi. Ularni tarbiyalab voyaga yetkazish, jismonan barkamol va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar qilib yetkazishda davlat, ta'lim muassasalari, jamoat tashkilotlari, mahalla va oila mas'uldir.", shuningdek, "Barkamol avlodni tarbiyalash - bu nafaqat oilaning, balki jamiyat va davlatning muhim vazifasi ekanligi to'g'risidagi quyidagi fikrlarini keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir: "Bag'rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish, millatlararo va fuqarolararo hamjihatlik va totuvlikni mustahkamlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, O'zbekistonda davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri etib belgilandi" degan ta'kidlari, yurtimizda yoshlarga berilayotgan e'tibor, ularga davlat tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik miqyosi yildan-yilga kengayib borayotganligini keltirib o'tishimiz mumkin.[1]

Farzand komilligi, uning tarbiyasi, sog'lomligi, milliy qadriyatlarga, Vataniga bo'lgan muhabbati kabi masalalar ko'tarilganda, mutafakkir Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir," - degan ma'noli fikrlari naqadar haqiqat ekanligini anglaymiz. Tarbiyaning o'chog'i bo'lgan oila - har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlovchi, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlovchi, ma'nan va jismonan barkamol avlodni dunyoga keltirib, tarbiyalab, vatanparvar yurt himoyachilarini voyaga yetkazuvchi muqaddas makondir[4].



Inson ilk tarbiyani oiladan, mehr qo'ridan, onaning suti va o'ziga xos allasidan oladi. Uning ta'siri odam tabiatiga, qalbiga mustahkam joylashadi. Farzandning komilligi, ruhiyati, mehribonligi, odobi har bir oilada belgilangan ichki, o'ziga xos qonun-qoidalari asosida shakllanib boradi[2].


“Ta'lim tarbiyaning birdan bir vazifasi kishi yashab turgan jamiyatning talablariga to'la to'kis javob bera oladigan va jamiyatni bir butunlikda tinchlik va farovonlikda saqlab turish uchun xizmat qiladigan mukammal insonni yetishtirishdadir” –deb ta'kidlagan buyuk mutafakkir Abu Nosir Farobiy. Darhaqiqat, jamiyat taraqqiyoti unda amalga oshiriladigan ta'lim - tarbiya ishlarining mazmuni, shakl va mohiyatiga bog'liqdir[16]. Shu boisdan ham ta'limdagi yangilanishni, respublikamizda amalga oshirilayotgan bosqichma - bosqich ta'lim tizimini pedagogik talqin qilish, bu jarayonni samarali kechishini ta'minlaydi[5].

Bugungi kunda jamiyatimiz jadal suratlar bilan o'zgarib bormoqda, bu esa hayotning turli sohalarida yangi bilim, ko'nikma va yondashuvlarni talab etadi. Jamiyatdagi o'zgarishlar hayotga ijobiy rivojlanish bilan bir qatorda salbiy jarayonlar ham sodir bo'lmoqda, bunda ta'lim – tarbiya maskanlari ko'p jihatdan vaziyatni baholashda yangi bilimlarni, milliy g'oya bilan qurollantirishni, amalga oshirishni talab etuvchi muammolarga duch kelmoqda[17]. Shu sababli mamlakatimizda olib borilayotgan ishlar, aynan ta'lim – tarbiya jarayoni shu maqsadga yo'naltirilgandir[6].

Respublikamizda ta'lim-tarbiya sohasi mustaqillikdan keyingi yillar mobaynida anchagina rivojlandi. Shuningdek, psixologiya sohasining alohida yo'nalishlari ham ancha rivojlandi. Maktabgacha ta'limda psixokorreksiyaning tashkil etishning ilmiy metodologik asoslari yaratildi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida psixokorreksion ishlarni o'yin-mashqlari, treninglarni qanday tartibda tashkil etilishi va o'tkazilishi borasidagi masalalar yoritilgan ilmiy-uslubiy manbalar yaratildi.

Bolalarning jismoniy, aqliy, ma'naviy va ruhiy rivojlanishi bir tekisda ro'y bermaydi. Bunday taraqqiyotning muayyan qonun-qoidalari mavjudki, pedagogika va psixologiyada ana shunday qonuniyatlarni hisobga olgan holda bolalarga ta'lim-tarbiyani va rivojlantiruvchi ishlarni olib borish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiyani tashkil etish bo'yicha davlat dasturlarida o'z aksini topgan[7].

Ba'zi hollarda bolalarning rivojlanishida kuzatiladigan nuqsonlar, orqada qolishlar, og'ishlar ularga tezkor yordamni tashkil etishni taqazo etadi. Bunday vaziyatlarda maktabgacha ta'lim tashkilotlari psixologi hamda tarbiyachilar psixokorreksion tadbirlarni rejalashtirib amalga oshiradilar[18]. Bunda, bolalar har tomonlama rivojlanishlari uchun turli yo'nalishlarda treninglar, o'yin mashqlari va mashg'ulotlarga jalb etiladi va mavjud muammolar bartaraf etiladi.



Hozirda maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti darajasini tashxis qilishga yordam beruvchi ko'plab diagnostik metodikalar yaratilgan va amaliyotda keng qo'llanilmoqda. Biroq, psixokorreksiyaning tashkil etishda ko'pgina amaliyotchi psixologlar qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Bu borada muammolarning mavjudligi hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida korreksion mashg'ulotlarni tashkil etish mavzusining dolzarbligini asoslaydi[8].


Bolada kattalar bilan muloqot jarayonida axloqiy xulq-atvorning dastlabki tajribalari shakllanadi. Muloqotga bo'lgan ehtiyoj – muhim ijtimoiy ehtiyoj bo'lib, katta yoshli kishi bu ijtimoiy ehtiyojni kondiruvchi manba hisoblanadi. Axloqiy xis-tuygular va odatlarni tarbiyalash shunday zaruriy asos hisoblanadiki, ularsiz bola shaxsining murakkabroq xususiyatlarini, ma'naviy kamolotni ta'minlash, mamlakatning ijtimoiy hayot hodisalari xaqidagi tasavvurlarni va ularga ijobiy munosabatni shakllantirib bo'lmaydi[19]. Maktabgacha bolalikning dastlabki bosqichlarida tarkib toptirilgan insonparvarlik asoslari, uning ijtimoiy yunalganligi bolalarda asta-sekin shaxsning jamoatchilik belgilari: xulq-atvori, odatlari, munosabatlari va tasavvurlarini shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi[9].

Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalar his hayajonga ega bo'lgan voqealar ta'siriga beriluvchan bo'ladilar. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklarni, hikoya, afsona, rivoyat, ertak, doston, she'rlarni o'rganish va uni tahlil qilish ko'p jihatdan olib boriladigan ishlarni to'g'ri tashkil qilishga ham bog'liq. Jumladan, ertaklar ustida ishlash, ertak mazmunini to'g'ri anglab olish, qahramonlarning o'ziga xos tomonlarini tushunish, voqealari rivojining sabab-oqibat jihatidan bog'lanishini idrok etish ularda inson uchun muhim bo'lgan xislatlarni tarbiyalashga samarali ta'sir etadi.

Bolalarni ertak bilan tanishtirish mashg'ulotlari oldiga qo'yilgan barcha ishlarni amalga oshirishda ertakni tinglash va tahlil qilishdan chetlab o'tilmaydi. Ertakni tahlil qilish davomida bolalarga tarbiyaviy maqsad amalga oshiriladi va ulardagi hissiy-irodaviy sifatlar takomillashtirib boriladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar irodasini tarbiyalashda ertaklardan foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi. Bolalar ertak tinglash jarayonida nima yaxshi-yu nima yomon ekanligini, yaxshi bola bo'lish uchun qanday xususiyatlarga ega bo'lish kerakligini ajrata oladi. Ertaklardagi obrazlar qahramonlarining hatti-harakatlari, voqea-hodisalarga munosabati bir-biridan farq kiladi. Ertak qahramonlari voqea-hodisalarga munosabati orqali ichki dunyosi ochila boradi. Katta yoshdagi bolalar turli xil vaziyatlarda voqealarning rivojlanishini tahlil qilish bu voqea –hodisalar muhokama qilib shaxsiy xulosa chiqarish orqali eng yaxshi insoniy his-tuyg'ularni egallay boradi[10].

Ertaklar bolalarni har tomonlama rivojlantirishning qudratli vositasi bo'lib xizmat qiladi, u bolalarda insoniy fazilatlarini shakllantirish, nutqini rivojlantirish, irodasini tarbiyalashga ulkan ta'sir ko'rsatadi.



Ertaklar bolaga jamiyat va tabiat hayotini, insoniy his-tuyg'ular va munosabatlar dunyosini ochib beradi hamda tushuntiradi. Ertaklardagi vaziyatlar bolalar irodasini mustahkamlaydi[15].

Ertak - to'qima voqea va hodisalarning umumlashma ramziy ifodasi bo'lib, unda xalq dilidagi orzu-umidlar va ushalmagan armonlar o'z ifodasini topadi. Ertaklarning voqea va hodisalar silsilasida xalqning urf-odatlarini, qadriyatlarini, axloq-odobining o'ziga xos milliy xususiyatlari, rango-rang an'analari namoyon bo'ladi.


Ertaklarda bevosita insonlar o'rtasidagi muomala-munosabatlar, turmush tarzi bilan bog'liq turli an'analari, jamiyatda ro'y berayotgan voqea va hodisalar, ijtimoiy tuzum taraqqiyotining har bir millatga xos urf-odat va an'analari u yoki bu shaklda aks etadi. Ayniqsa odamlar o'rtasida mehr-oqibat, e'tiqod, bir-biriga nisbatan hurmatni targ'ib qilishda turli tuman xalq ertaklaridan foydalanish muhim ahamiyatga egadir[11].

Ertaklardagi voqea hodisalar o'zining ta'sirchanligi bilan bolani o'ziga tortadi. Bolalarni tarbiyachi tomonidan aytilgan ertaklardagi obrazlar qaxramonlari, xususan ijobiy va salbiy obrazlarga alohida urg'u berish orqali bolalar irodasini tarbiyalab boradi. Ertaklarni o'rganishdan maqsad bolalarda ertak qaxramonlaridagi irodaning mardlik, jasurlik, donolik, mehribonlik, tetiklik kabi xislatlarni tarkib toptirishdan iborat[14]. Ertak janrining bolalar tomonidan yaxshi qabul qilinib, qiziqib tinglanilishining sabablaridan biri ertakning ta'sirchanligi, o'tkirligi, ma'nodorligidir. Ertaklarning ko'pchiligida real hayot tasviri sarguzasht elementlar bilan qo'shib tasvirlanadi.

Ertakning o'tkir, maroqli syujeti, voqea rivojidadagi favqulodda ajoyib vaziyat bolalarni maftun qiladi, undagi mard, kuchli, topqir, dovyurak, chaqqon qahramonlar, ertakning g'oyaviy yo'nalishi, unda ezgulik kuchining — yaxshilikning doimo g'alaba qilishi bolalarni o'ziga tortadi. Ertakda qaxramonlari ko'pincha rahmdil, saxiy, adolatli hamda ularning aksi bo'lgan yovuz, baxil, ochko'z kishilar timsoli bo'ladi[12].

“Ertaklar asosida bolalar hissiyotini rivojlantirishning psixologik-pedagogik modeli” da maktabgacha yoshdagi bolalar hissiyotini shakllantirishda ertaklardan foydalanish imkoniyatlarini ochib beradi.


Ertaklarning qiymati shundan iboratki, bolalar unda to'g'rilik, halollik g'alaba qilganidan, kambag'al kishilar qiyinchilikdan qutilganidan, ya'ni yaxshilik, ezgulik ro'yobga chiqqanidan va yomonlik, yovuzlik mahkumlikka uchraganidan quvonadilar. Ular hayotda ham doimo shunday bo'lishini istaydilar. Masalan maktabgacha tarbiya yoshidagi katta guruh bolalari bilan “Quvnoq tilcha”, “Bo'ri bilan echki”, “Ikki echki” ertagi asosida tashkil qilingan mashg'ulotlarda bolalarni tarbiyachi tomonidan aytilgan ertakning mazmunini tushunib olishga o'rgatib boriladi[13].



Har bir ertak ma'lum bir davrga, xilqqa, millatga xos bo'ladi. Bolalar qahramonlarning ma'naviyatiga bo'lgan qiziqishlari tufayli hayotning nurli va qorong'i tomonlari xususida muayyan tushunchaga ega bo'la boshlaydilar. Ularda go'zallik va nafosatga muhabbat, yovuzlikka nisbatan nafrat tuyg'usi ertaklar bilan tanishish va uni tahlil qilish davomida shakllanib boradi. Masalan, "Qizil shapkacha" ertagini qayta hikoya qilishga o'rgatish mashg'ulotlarida ertak matni asosida bolalarni qayta hikoya qilish malakasi o'stiriladi hamda xissiyati rivojlanadi.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Umarov B. "Oilaviy tarbiya saboqlari" (Oilada farzandlar tarbiyasiga oid psixologik chizgilar) Ilmiy-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: "Tasvir nashriyot uyi", 2019-y, 52-bet.
2. M. Farmonova Sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosida farzand tarbiyasi. / Ilmiy-uslubiy qo'llanma. – Toshkent: «Tasvir nashriyot uyi», 2020, 36 b.
3. Hasanova, N. I. (2021). Challenges In The Development Of The Health System In Surkhan Volume. The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research, 3(02), 63-67.
4. Хасанова, Н. И. (2019). СУРХОН ВОҲАСИДА МАДАНИЙ-МАЪРИФИЙ МУАССАСАЛАРИ ФАОЛИЯТИ (XX асрнинг 20-30 йиллари мисолида). ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ, (17).
5. Akramova, F. A. (2020). Main requirements psychological service for families. European Journal of Research and Reflection in Educational Science, Great Britain Progressive Academic Publishing, 16-18.
6. Akmalovna, A. F., Safarovna, T. M., & Shakatulloevna, U. S. (2021). Violence In The Family And The Need For Psychoprophylactic Measures. The American Journal of Applied sciences, 3(02), 63-72.
7. Akramova F. MAIN PROBLEMS OF PROVIDING PSYCHOLOGICAL SERVICE TO THE FAMILY. Science and Society. 2021;2020(4):105-7.
8. Akmalovna, A. F. (2015). Problems of psychology of gender equality in the system of higher education. Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах устойчивого развития, 1(13 (eng)), 273-275.
9. Djuraeva SN. Specifity and Features of Application Modern Innovative Technologies Training to Higher Education. Eastern European Scientific Journal. 2018;4:136-9.
10. Jo'rayeva, S. N., & Jumayev, S. Q. (2021). Psixologlarning etiket tamoyillari. O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti axborotnomasi, 7(13), 95-101.
- 11.
- 12.
- 13.



14. Жўраева, С. Н., Азимова, Г., & Юнусходжаев, З. ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР. ИННОВАЦИОН ФАН-ТАЪЛИМ ТИЗИМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ БАРКАМОЛ АВЛОДНИ ВОЯГА ЕТКАЗИШДАГИ РОЛИ ВА АҲАМИЯТИ, 60.
15. Жўраева, С. Н. (2021). КОГНИТИВ ҚОБИЛИЯТНИНГ ЁШЛАР ТАЪЛИМИДАГИ РОЛИ. Academic research in educational sciences, 2(11), 1404-1409.
16. Жўраева, С. Н. (2021). ЎҚИШ ФАОЛИЯТИ ТАЛАБА ПСИХИК ЖАРАЁНЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ. Academic research in educational sciences, 2(10), 1219-1230.
17. Sharafutdinova, K. G. (2020). Destruction of family relations psychoprophylaxis family-neighborhood-educational institution cooperation. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 1000-1007.
18. Sharafutdinova, K. G. (2021). THE ROLE OF TEMPERAMENT IN THE FORMATION OF INDIVIDUAL AND DESTRUCTIVE INDIVIDUAL RELATIONSHIP STYLE. Theoretical & Applied Science, (8), 210-214.
19. Sharafutdinova, K. G., Kulmamatova, F. K., & Haydarova, S. (2021). The role of cognitive psychology in the elimination of destructive behavior. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(4), 957-964.
20. Шарафутдинова, Х. Г. (2021). OILADA DESTRUKTIV SHAXS XUSUSIYATLARI. Academic research in educational sciences, 2(11), 231-236.
21. Шарафутдинова, Х. Г., & Бердиева, М. М. (2018). ПРОБЛЕМА ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ОТНОШЕНИЯ К РЕБЁНКУ В ПРОЦЕССЕ ОБРАЗОВАНИЯ. Гуманитарный трактат, (25), 89-91.
22. Шарафутдинова, Х. Г., & Нормуминова, Д. Э. (2020). Преодоление тревожности с помощью когнитивно-поведенческой психотерапии. Педагогическое образование и наука, (1), 124-127.